



Received: April 1, 2024
Accepted: June 23, 2024
Available online: June 25, 2024

Madina Urazaliyeva

Mustaqil izlanuvchi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

RETSEPTIV POETIKA NAZARIYASI TARAQQIYOTI XUSUSIDA

ANNOTATSIYA

XX asrda ilm-fan har jihatdan rivojlandi. Bu esa adabiyotda, asosan, Yevropa va Amerikada bir qancha nazariyalarni yuzaga keltirdi. Jumladan, retseptiv poetika nazariyasi yangi adabiy tanqid nazariyasidan farqli o'laroq vujudga kelib, kitobxon mutolaa jarayonini badiiy asar hamda kitobxon o'rtasidagi munosabatning o'zaro ajralmas zanjiri sifatida tahlil etadi.

Mazkur maqolada retseptiv poetika nazariyasining paydo bo'lishi hamda bu nazariya xususida ilmiy tadqiqot olib borgan L.M. Rozenblatt, I.A. Richards, D.Blayx, S.Fish, N.Xolland, K.S. Lyuis kabi olimlarining qarashlari muhokama qilingan. Maqolada ushbu nazariya namoyondalari kiritgan maxsus terminlar asosida mutolaa jarayonining muayyan bosqichlarga bo'linishi tadqiq etilgan va kitobxonning mutolaa jarayonida asarga munosabati besh bosqichli uzviy jarayon sifatida kechishi yoritilgan. Xususan, nazariyaga berilgan ilmiy ta'riflar lug'atlar doirasida ko'rib chiqilgan. Retseptiv poetika nazariyasi xususidagi ta'riflar asosan nazariyaning mutolaa jarayoniga urg'u berilishini ta'kidlaydi.

Natijada mutolaa, kitobxon va asar xususidagi qarashlar Amerika, Yevropa, Rossiya hamda o'zbek olimlarining ilmiy g'oyalarga asoslanib tahlil qilinadi. G'arb adabiyotida bo'lgani kabi aynan Rossiyada ham XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hayotiy va xayoliy kitobxonga ajratish ilmiy jihatdan o'z asoslariga ega bo'la boshladi. Misol uchun, V.Prozorovanning ilmiy tadqiqotlarida o'quvchi-qabul qiluvchi termini o'quvchi-murojaat etuvchi terminiga nisbatan qarama-qarshi qo'yiladi hamda ikkinchi

Madina Urazaliyeva

Independent Researcher
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: madinaurazaliyeva4@gmail.com
ORCID iD: 0009-0009-2964-9683

DEVELOPMENT OF THE THEORY OF RECEPTIVE POETICS

ABSTRACT

In the 20th century, science and education evolved together, leading to the creation of several literary theories in Europe and America. The Receptive Poetics Theory emerged in contrast to the New Literal Criticism theory, focusing on the process of reading and the inseparable relationship between the reader and the text. This article discusses the origins of the reader-response theory and the perspectives of prominent researchers such as L.M. Rosenblatt, I.A. Richards, D.Bleich, S.Fish, N.Holland, and C.S. Lewis.

The article explores the idea that the reading process can be divided into several steps, as proposed by the representatives of the theory. According to this perspective, the reader's attitude towards a work involves a five-step process, which is thoroughly reviewed in the article. The scientific description of the theory is examined using several dictionaries, which maintain that the theory outlines the essence of the reading process.

In this research, the views on reading, the reader, and literary work are analyzed within the context of the scientific ideas of researchers from Uzbekistan, Russia, Europe, and America. Similar to Western literature, in Russia, from the second half of the 20th century, the distinction between real and imaginary readers began to be firmly established on scientific grounds. For example, in the research of V.Prozorova, the term "reader-receiver" is introduced in contrast to "reader-addresser", where the latter term is considered insignificant. I.D. Tamarchenko not only defines the position of the perceiving subject with the text and the protagonist of the literary work in the

termin ahamiyatsiz ekanligi ta'kidlanadi. I.D. Tamarchenko "Adabiyot asoslari" qo'llanmasida nafaqat idrok etuvchi subyektning badiiy asarning matniga hamda qahramoniga nisbatan o'rnini belgilab beradi, balki "kitobxon" tushunchasiga ham o'z e'tiborini qaratadi. D.Quronov va H.Umurov badiiy matn talqinida kitobxon rolini yuqori baholaydilar. D.Quronov o'zining "Adabiyotshunoslikka kirish" o'quv qo'llanmasida turli adabiy mavzular yuzasidan kitobxon haqida so'z yuritadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek olimlari ham kitobxon va matn o'rtasidagi munosabatlarga o'zlarining muayyan fikrlarini bildirishlarga. Shu jihatdan, maqolada retseptiv poetika nazariyasining tarixiy hamda nazariy omillarini o'rganish muhimligi e'tirof etildi.

Kalit so'zlar: retseptiv poetika, yangi adabiy tanqid, formalizm, kutish gorizontlari, katarsis, haqiqiy kitobxon, xayoliy kitobxon, tarixiy-xayoliy kitobxon, hayotiy kitobxon, ko'rinmas kitobxon.

KIRISH

XX asrda adabiyotshunoslikda turli adabiy maktablar shakllandi. Ular qatorida retseptiv poetika alohida o'ringa ega. Xususan, unga doir nazariyada asosiy e'tibor o'quvchi va uning adabiy matndan olgan taassurotiga qaratiladi. Aniqroq qilib aytganda, retseptiv poetika nazariyasi o'quvchini matnga hayot baxsh etuvchi va o'z talqini orqali unga tugal mohiyat beruvchi faol shaxs sifatida ko'radi. Retseptiv poetika xususidagi dastlabki qarashlar Amerika va Germaniyada paydo bo'lgan. Jumladan, L.M. Rozenblatt, I.A. Richards, D.Blax, S.Fish, N.Xolland, K.S. Lyuis kabi olimlar bu nazariyaning ilmiy asoslarini yaratgan namoyandalar sifatida o'rganiladi. Shu bilan bir qatorda, rus hamda o'zbek olimlarining badiiy matnni kitobxon tomonidan talqin qilish to'g'risidagi izlanishlarini ham o'rganish maqsadga muvofiqdir. Adabiyotshunoslarning qo'lyozmalaridan kelib chiqib, retseptiv poetika nazariyasi xususidagi asosiy qarashlarni shakllantirish va buning natijasida nazariyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish mumkin, albatta. Shu orqali retseptiv poetikaning tadqiqot obyekti hamda uning xususiyatlari birgalikda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishimiz mumkin. Binobarin, retseptiv poetika nazariyasi shu kunga qadar ko'pgina mutaxassislar tomonidan amaliyotga tatbiq etilib, uni adabiyot fani mashg'ulotlarida qo'llashning turli ijobiy va salbiy xususiyatlari ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, bir nechta asarlarning retseptiv poetika yondashuvidan kelib chiqqan holda tahlil qilinishi ushbu yondashuvning turli tamoyillarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Retseptiv poetika nazariyasiga oid ta'riflar tahlili

Retseptiv poetika nazariyasining tavsifiga ko'plab lug'at va ensiklopediyalarda turlicha ta'riflar berilgan, bir qancha olimlarning nomlari ushbu nazariya bilan

basics of literature manual but also emphasizes the concept of the "reader".

In conclusion, Uzbek scholars have also expressed their controversial opinions on the relationship between the reader and the text. In this respect, the article recognizes the importance of studying the historical and theoretical factors of the theory of reader-response theory.

Key words: reader-response, new criticism, formalism, horizon of expectations, catharsis, actual reader, implied reader, historical-implied reader, concrete reader, invisible reader.

bog‘lanadi. Xususan, “The Oxford Dictionary of Philosophy” lug‘atida, Saymon Blekbern retseptiv poetika nazariyasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Retseptiv poetika amerikalik tanqidchi Stenli Fish nomi bilan bog‘liq bo‘lgan adabiy tahlil usuli. Unga ko‘ra, mohiyat matnda emas, balki o‘quvchining ongida paydo bo‘ladi, deb qaraladi. Matn esa o‘quvchi o‘z taassurotlarini tushirishi mumkin bo‘lgan “oppoq qog‘oz” kabidir – “The text is a cause of different thoughts, but does not provide a reason for one interpretation rather than another” [Blackburn, 2016; 545]. Ya’ni, olimning fikriga ko‘ra, badiiy asar turli-tuman fikrlar mahsuli hisoblanadi, ammo o‘quvchining tahlilidan afzal unsur bo‘lishi mumkin emas. Ushbu nazariya postmodernizm bilan kirib kelgan, kitobxon mutolaasini o‘rganish ahamiyatli jarayon ekanligini ta’kidlaydi. Bunday erkin adabiy qarash insonlardan o‘zgacha fikrlashni talab qilmaydi.

“Handbook of Research on Teaching Diverse Youth Literature to Pre-Service Professionals” kitobi mualliflari esa retseptiv poetika nazariyasini L.M. Rozenblatt nomi bilan bog‘laydi. Bunga sabab shuki, L.M. Rozenblattning o‘quvchi va matn o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarida matn talqiniga o‘quvchining ijtimoiy-madaniy qarashlari bevosita ta’sir etadi [Pozzi et al., 2021] degan xulosaga kelganligi. Amerikalik olim, retseptiv poetika nazariyasi tadqiqotchisi L.M. Rozenblattning fikriga ko‘ra, o‘qish jarayonini uchta asosiy unsur tashkil etadi, ya’ni o‘quvchi, matn va talqin. U badiiy asarni o‘qish, uzluksiz jarayon bo‘lib, mutolaa qilgan o‘quvchi yuksak hissiy ta’sir va estetik zavq olishi tabiiy deb hisoblaydi. Shuningdek, Syuzan Vegman ta’kidlaganidek, “Depending on their stance, readers understand text for different purposes. Readers are also influenced by their own unique linguistic experiential reservoir” [Wegmann, 2009], ya’ni o‘zlaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilar matnni turli maqsadlarda idrok etadilar. Vaholanki, o‘quvchilarning aynan o‘zlariga xos bo‘lgan leksik zaxirasi ham mutolaaga ta’sir etuvchi omillaridan biri hisoblanadi. M.X. Abrams esa o‘zining “A Glossary of Literary Terms” nomli lug‘atida keltirib o‘tgan ta’rif bilan esa yuqoridagi ma’lumotlarni yanada to‘ldiradi [Abrams & Harpham, 2014]. Retseptiv poetika nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmida ommalashgan va hech qaysi tanqidiy nazariyani qoralamaydi, balki boshqa Amerika va Yevropa adabiy tanqid usullari kabi badiiy matnni o‘qish jarayoniga e’tibor qaratadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, retseptiv poetika nazariyasi yigirmanchi asrda Amerika va Yevropada paydo bo‘lgan.

J.Zhao va M.E. Kristison kabi tadqiqotchilar retseptiv poetika nazariyasiga ta’rif berar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi: “...retseptiv poetika nazariyasi mutolaani yuksaltirishga qaratilgan nazariyadir. Unga asosan hech qaysi matn aynan yagona va to‘g‘ri deb hisoblangan talqinga ega emas. Aksincha, matn mohiyati o‘quvchilar o‘zlari o‘qiganlari asosida talqin etganlaridan yaraladi. Misol uchun, ikkita o‘quvchi aynan bitta matnni turlicha talqin etishlari mumkin va bu qarashlar nazariyaga ko‘ra, teng ahamiyatga egadir – “there is no single correct interpretation for any text. Instead, meaning is created as readers seek their own understandings of what they have read. For example, two different readers may find completely different meanings in the same text and both may be considered equally valid” [Zhao & Christison, 2020]. Darhaqiqat, har bir shaxs o‘z hayotiy tajribasidan kelib chiqib, bitta matnni har xil

qabul qilishi mumkin.

Kris Boldik ham “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” kitobida retseptiv poetika nazariyasini zamonaviy adabiy tanqid usullarining umumiy nomlanishi ekanligini ta’kidlaydi va uni o’zida badiiy unsurlarni jamlagan deb hisoblanuvchi badiiy matndan ko’ra, o’quvchining badiiy asarga nibatan munosabatiga asosiy e’tiborni qaratuvchi nazariyadir, deb nomlaydi [Baldick, 2001; 212]. “Webster’s College Dictionary”da ham boshqa ta’riflarga o’xshab, retseptiv poetika nazariyasi bir nechta adabiy tanqid nazariyasini inobatga olishini hamda o’quvchining mutolaa jarayoniga e’tibor qaratishini va bunga qo’shimcha ravishda muallif g’oyasiga qarama-qarshi ekanligini aytib o’tadi [House, 2010]. “Merriam-Webster.com” onlayn lug’ati ham retseptiv poetika nazariyasini, asosan, o’quvchining matnga nisbatan munosabatiga e’tibor qaratuvchi nazariya deb ta’riflaydi [Merriam-Webster, n.d.]. J.E. Kaddon ham o’zining “The Penguin dictionary of Literary Terms and Literary Theory” kitobida retseptiv poetika nazariyasiga ta’rif berar ekan, aynan qaysi nazariyalarni inkor etishini batafsil yoritib o’tadi. Retseptiv poetika nazariyasi “matn va o’quvchi” hamda “o’quvchi va matn” o’rtasidagi o’zaro munosabatni inobatga olgan holda, mutolaa jarayonida har bir o’quvchi badiiy matnni turli jihatlariga o’z munosabatini bildiradi. Shuning uchun o’quvchining matnga nisbatan shaxsiy munosabati alohida ahamiyatga ega. Formalizm yoxud Yangi adabiy tanqid (New Criticism) deyan nom olgan nazariyalar ko’proq matnga yo’naltirilgan bo’lib, kitobxon mutolaasi va talqini kabi jarayonlarga yetarlicha e’tibor qaratmagan: “reader-response theory is concerned with the reader’s contribution to a text, and it challenges, with varying degrees of plausibility and conviction, the text-oriented theories of Formalism and the New Criticism, which have tended to ignore or underestimate the reader’s role” [Cuddon & Preston, 1998]. Formalizm yoxud yangi adabiy tanqid maktabi ham XX asrning o’rtalarida J.K. Rensomning adabiyot haqidagi falsafiy qarashlari asosida paydo bo’lgan [Young, 1976]. Ushbu nazariya tarafdorlari “art for art’s sake” [Britannica, n.d.], ya’ni “san’at asari faqat san’at uchun xizmat qilishi kerak” degan iboraga tayanadilar. Bu nazariyaga ko’ra, matn muallifning g’oyasi, kitobxonning munosabati hamda ekstralingvistik omillardan holi tarzda o’rganilishi zarur. Bunda badiiy asar asosan lingvistik tahlil qilinadi degan fikrni ilgari surishgan.

S.Braun, S.Chen, F.Barudi va E.Sevinch o’zlarining “Reader Response Theory” nomli tadqiqot ishlarida retseptiv poetika nazariyasi badiiy matn tahlilini qurishda o’quvchini muhim o’ringa ega shaxs sifatida ta’kidlashadi. O’quvchining muhim o’rnini anglagan holda, ushbu nazariya dastlabki matnga asoslangan qarashlarni tatbiq etuvchi yangi adabiy tanqid nazariyasidan hamda ongga asoslangan mutolaa haqidagi psixologik qarashlardan ajralib chiqqan nazariyadir – “Reader response theory identifies the significant role of the reader in constructing textual meaning. In acknowledging the reader’s essential role, reader response diverges from early text-based views found in New Criticism, or brain-based psychological perspectives related to reading” [Browne et al., 2021]. Darhaqiqat, kitobxonning badiiy matn talqini amalda yangicha mazmun-mohiyat yaratadi.

TADQIQOT USULLARI

Ushbu maqolada retseptiv poetika nazariyasi tajridiy rivojlanishini tahlil qilish hamda o'rganish maqsadida ilmiy ijod metodologiyasining asosiy metodlari hisoblangan analiz va sintezning klassifikatsiyalash, differensiyalash, abstraksiyalash kabi usullaridan foydalaniladi.

Retseptiv poetika nazariyasining analizi uning yo'nalishlari, obyekti, predmeti va vazifalarini tahlil qilishdan iboratdir. Bunda ushbu nazariya asoschilarining fikrlari o'rganilib, uning obyekti hamda predmeti to'g'risidagi ma'lum xulosalarga kelindi. Shu orqali uning vazifalari belgilandi. Shu bilan birga, retseptiv poetika nazariyasining asoslari va uning muhim jihatlari o'rganilganda ularni ma'lum guruhlariga birlashtirgan holda klassifikatsiyalash usulidan foydalanildi.

Retseptiv poetika nazariyasining farqli jihatlari, ya'ni bir necha yondashuvlari tufayli unga oid boshqa xususiyatlarni ajratish maqsadida differensiyalash tadqiqot usulidan ham foydalanildi.

Abstraksiyalash usulidan nazariyaning mavhum tushunchalari, gipotezalarini asoslash va tahlil qilish maqsadida foydalanildi. Har bir nazariyada bo'lgani kabi retseptiv poetikaning ham asosiy tushunchalari mavjud bo'lib, ular xususida fikr yuritish bizdan ushbu usuldan foydalanishni talab qildi.

Yuqorida qayd etilgan usullar orqali erishilgan natijalar sintez metodi orqali umumiy xulosalarda birlashtirildi va retseptiv poetika nazariyasini butun bir tizim asosida tassavvur etish imkoniyatini taqdim qildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Retseptiv poetika nazariyasi XX asrda shakllangan bo'lsa-da, uning kelib chiqishi o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega. Tarixdan ma'lumki, qadimdan ijodiy asarning tomoshabin yoxud kitobxon tomonidan qabul qilinishi va munosabat bildirilishi ijod ahli uchun doimo muhim ahamiyat kasb etgan. Qadimgi yunon adabiyotining tragediya janrida ham asar orqali tomoshabinning "poklanishi" – "catharsis" tushunchasi muhim unsur hisoblangan [Merriam-Webster, n.d.]. O'z navbatida, Aristotel o'zining "Poetika" asarida "katarsis" tushunchasiga ta'rif berar ekan, tomoshabinning asarga nisbatan munosabati muhimligi va bundan o'ziga xulosa chiqarishi ijodkorning asosiy yutug'i ekanligini ta'kidlaydi [Lucas, 1981]. Masalan, antik davrda insonlarda dastlab tragediya janriga nisbatan katta qiziqish paydo bo'lgan va juda tez ommalashgan. Ushbu janrning asosiy xususiyati tomoshabinlarda "ruhiy poklanish" bo'lib, bu "katarsis" deb atalgan. Keyinchalik ushbu tushuncha har qanday san'at asariga nisbatan ishlatila boshlandi va bunda asar tomoshabinining yoki kitobxonining asardan olgan zavqi, tuyg'ulari birinchi o'ringa chiqa boshladi. Yangi adabiy tanqid nazariyasi badiiy asar mohiyatini yaratishda o'quvchining o'rnini inkor etayotgan bir paytda, 1930-yillarda unga qarama-qarshi tarzda mutolaa jarayoniga ham keng e'tibor qaratildi. 1940–1950-yillarga kelib esa adabiy tanqid jarayonlari ommalashdi. Retseptiv poetika adabiy oqimi an'anaviy madaniyat va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarning asosiy tanqid maktablaridan biri bo'lib, u orqali badiiy matnni mutolaa qilish jarayoniga o'ta muhim yondashuv usuli kiritilgan.

So'nggi paytlarda mazkur adabiy oqim badiiy asarni idrok etishni tanqidiy baholash usuli sifatida ham talqin etilmoqda, uning kelib chiqishi XX asrning taniqli faylasufi Edmund Gusserlning noodatiy metodiga borib taqaladi [Husserl, 1970]. Matnga emas, balki o'quvchiga yondashuv XX asrning 70-yillar oxiri va 80-yillar boshlariga kelib keng tarqaldi. Retseptiv poetika nazariyasi tanqidchisi amerikalik L.M. Rozenblattning asosiy nazariy qarashlari bu yondashuvni yuqori bosqichga olib chiqdi. Shuningdek, Kontans maktabining tanqidchilaridan H.R. Yauss hamda V.Izerning bu boradagi ilmiy izlanishlari mazkur nazariyaning rivojlanishiga sezilarli darajada xizmat qildi. Natijada badiiy matn talqinida retseptiv poetika yondashuvi "kutish gorizontlari" ("horizons of expectation"), "inkor etish" ("negation"), "assimilitatsiya" ("assimilation"), "yaratish" ("creation"), "xayoliy va chin kitobxon dixotomiyasi" ("the implied/actual reader dichotomy"), "konkretlashtirish" ("concretization") va "tafovutlar" ("gaps") kabi mukammal yangi terminlar bilan boyitildi. Retseptiv poetika nazariyasining tub mohiyatini anglash uchun ushbu terminlarning tavsifiga diqqat bilan e'tibor qaratish lozim. Xususan, V.Izer o'zining "The Reading Process: A Phenomenological Approach" nomli asarida yuqorida tilga olingan terminlarni quyidagicha izohlagan:

1. "Kutish gorizontlari" ("horizons of expectation") – H.R. Yauss tomonidan kiritilgan reseptiv poetika nazariyasining asosiy termini hisoblanadi. H.R. Yaussning fikriga ko'ra, "kutish gorizontlari" badiiy matn yoki san'at asarini baholash, interpretatsiya (talqin) qilishning ma'lum bir avlod vakillari uchun umumiy jihatlari hisoblanadi. Bunga ijtimoiy bilimlar, janr va uslubga nisbatan kutishlar, matnga oid dastlabki kitobxonda mavjud bilimlar kiradi. Biroq retseptiv poetika nazariyasiga ko'ra, mutolaa tushunchasi tarixan o'zgaruvchan jarayon hisoblanadi.

2. "Inkor etish" ("negation") – ushbu holat matnda ko'plab normalarni buzish holatlari uchraganda kitobxonlar tomonidan matnning inkor etilishi bilan bog'liq.

3. "Assimilitatsiya" ("assimilation") – bu jarayon kitobxonning matnni tushunishga harakat qilishi va estetik zavqni his qilishi bilan bog'liq.

4. "Yaratish" ("Creation") – retseptiv poetika nazariyasining eng bebaho jarayoni, ya'ni kitobxon mazmun yaratuvchisiga aylanishi, qoidalarni buzgan xususiyatlarni qadrlashi va tahlil qilishni boshlash bosqichidir.

5. "Xayoliy va chin kitobxon dixotomiyasi" ("the implied/actual reader dichotomy") – matn ichida yaraladigan, turli usullarda o'qishga tayyorlaydigan munosabat shakllarining yig'indisiga tenglashtirilgan kitobxon, ya'ni bu "xayoliy kitobxon"dir. Xayoliy kitobxon matn ichida mavjud bo'lib, o'z nomiga hamohang tarzda muallifning xayolida matn bilan birgalikda yaraladi va u mukammal kitobxon hisoblanadi. Bunday kitobxon matnning pragmatik, badiiy, semantik xususiyatlarini juda yaxshi anglaganligi bilan ajralib turadi. Va aksincha, "chin kitobxon" matnni shaxsan o'zi tanlaydi va o'qiydi. Bunday kitobxon matnni o'z madaniy, shaxsiy ehtiyoj va maqsadlari asosida tahlil qiladi.

6. "Konkretlashtirish" ("concretization") – matnning moddiylashish va kitobxon ongida hosil bo'lish jarayonidir. Bu jarayon davomida kitobxon matnni avtomatik ravishda o'z dunyoqarashidan kelib chiqib tasavvur etadi.

7. "Tafovutlar" ("gaps") – kitobxon badiiy matn unsurlarining barchasini ham

anglamaydi, buning natijasida tafovutlar paydo bo'ladi. Kitobxon ushbu tafovutlarni o'z bilim doirasidan kelib chiqib to'ldirishi kerak. Badiiy matnda kutilmagan burilishlar, tushirib qoldirishlar, voqealar ketma-ketligida ko'plab uzilishlar uchraydi. Ushbu uzilishlarni to'ldirish imkoniyati esa kitobxonga beriladi, albatta. Har bir kitobxon tafovutlarni o'zicha kash qiladi [Iser, 1972].

Yuqorida qayd etilgan tushunchalarning nazariy asoslari bo'yicha oxirgi o'n yillikda retseptiv poetika nazariyasi uzluksiz ravishda tadqiq etib kelindi. I.A. Richards va L.M. Rozenblatt nazariyani tizimli ravishda ishlab chiqqan asosiy shaxslardan edi. 1929-yili I.A. Richards Kembrij universitetining bir guruh talabalari o'rtasida noto'g'ri o'qish sabablarini tahlil qildi va L.M. Rozenblatt "Literature as Exploration" (1938) nomli asarida o'qituvchilar har qanday badiiy matnga aynan qolipga solingan fikrlar, ya'ni mashhur adabiyotshunoslar tomonidan bildirilgan stereotipik g'oyalar hamda intensiyalar ta'sirida yondashishni talabalarga singdirishdan uzoqlashish kerakligi haqida bahs yuritadi [Rosenblatt, 1938].

1960-yillarda D.Blax o'zining pedagogik faoliyatidan ruhlaniib, adabiyot nazariyasida badiiy matn o'quvchi ongida jonlangani kabi uning o'z talqinidan ham iboratdir, simvallashtirish va qayta simvallashtirish jarayoni mavjud bo'lganligi sababli obyektiv o'qishning imkoni yo'q mazmunidagi fikrini bayon qildi. Unga ko'ra, simvallashtirish va qayta simvallashtirish jarayoni o'quvchining tuyg'ulari, ehtiyojlari, hayotiy tajribalari hamda qay tariqa matndan tashqaridagi mohiyatni o'zgartirib, mutolaa qilish kabi aspektlarni o'z ichiga qamrab oladi. D.Blax o'zining mazkur nazariyasini o'zining talabalari ustida olib borgan tadqiqot natijalari orqali asoslaydi. Ya'ni, dastlab, talabalar o'zlarining mutolaadan olgan taassurotlarini diktofonga yozishdi, so'ngra o'z taassurotlarini qog'ozga tushirishdi, va nihoyat, ushbu tadqiqotning adabiy ahamiyatini tasdiqlash uchun har bir shaxs qay tariqa matnni qayta idrok etishini javoblar orqali taqqoslashdi. D.Blax tadqiqot natijalaridan mutolaa jarayonining nazariy asoslarini yaratishda va adabiyot o'quv mashg'ulotlarining ahamiyatli tomonlarini qayta ko'rib chiqishda foydalandi [Tyson, 2012].

1961-yilda K.S. Lyuis tomonidan "An Experiment Criticism" nomli ilmiy asar nashr etildi. Ushbu asar badiiy asarlarni mutolaa qilish uchun tanlashda kitobxonning fikrini ham inobatga olish kerakligi haqidagi ilmiy mulohazalarni o'zida aks ettirdi. K.S. Lyuis o'quvchining adabiy asar tanlovini ularning mutolaa qilish maqsadidan kelib chiqqan holda tahlil qildi. Bundan avvalroq esa, 1926-yilda, asar muallifi "o'qilmagan she'r aslo she'r emas" – "a poem unread is not a poem at all" mazmunidagi mulohazasi orqali retseptiv poetika asoslariga urg'u bergan edi [Schakel, 2002; 21]. Zamonaviy retseptiv poetika nazariyasi tanqidchilari ham ushbu g'oyaga e'tibor qaratib, badiiy asar o'quvchisi faqatgina matnni ko'ribgina qolmay, balki uning hissiy idrokiga turtki bergan, xayolida gavdalangan tasavvurni ko'radi, deya ta'kidlashdi.

1967-yilga kelib, S.Fish ulkan adabiy asar "Paradise Lost"ni o'qish jarayonida o'quvchilarda paydo bo'lgan taassurotlarni tadqiq etgan dastlabki ilmiy ish – "Surprised by Sin"ni nashr ettirdi. Asarning ilova qismida, ya'ni "Literature in the Reader"da S.Fish o'quvchilarning murakkab gaplarga uzluksiz va so'zma-so'z bergan javoblaridan foydalandi [Fish, 1998; 361]. 1976-yildan boshlab esa S.Fish o'quvchilar

orasidagi real farqlarga yuzlandi. U turli tanqid maktablari, adabiyotshunos olimlar taklif etgan o'qish uslublarini tadqiq etib, mutolaaning muayyan usullarini o'zaro ifodalovchi "talqin etuvchi jamoalar" – "interpretive communities" g'oyasini taklif etdi.

1968-yili N.Xolland badiiy asarni tasvirlashda "The Dynamics of Literary Criticism" asarida psixoanalizga asoslangan yondashuvdan foydalandi [Stade, 1969]. Unga ko'ra, har bir o'quvchi badiiy matn tufayli xayoliy olamga sho'ng'iydi, so'ngra matnni *muhofaza mexanizmlari* tufayli o'z talqiniga o'zgartiradi. Biroq 1973-yili real muhitdagi o'quvchilarning javoblarini yozib olgandan so'ng, N.Xolland aynan ushbu modelga mos keluvchi variantlarni topdi, ya'ni unga ko'ra, javoblar deyarli bir xil, ammo kichik bo'lsa-da o'ziga xos individual xususiyatlar ham mavjudligini tasdiqladi.

Keyinchalik N.Xolland o'zining "5 Readers Reading" nomli ilmiy ishiga asoslanib, navbatdagi ikkinchi loyihasi ustida ish boshladi va muayyan xulosalarga keldi [Holland, 1975]. Unga ko'ra, har bir shaxs ongida o'z shaxsiyatini belgilovchi asos xarakterga ega, shu jihatdan fe'l-atvorni musiqaga o'xshatish mumkin, ya'ni aynan kitobxon xarakterini anglash – musiqadagi mavzu va xususiyatlar kabi tushunish kasb etadi. Bu asos sababli individual shaxs o'ziga xoslik, shu bilan birga, mutolaa usuliga ega. Bundan tashqari, har bir o'quvchi boshqa o'quvchilarning javoblariga o'xshash va o'xshash bo'lmagan javobni berish uchun mavjud adabiy asar bilan birgalikda farqli bo'lmagan kodlash usulidan (harflar va shu kabi belgilar), turli bo'yoqlar (turli "talqin etuvchi uyushmalar") va o'ziga xos o'qish usulidan foydalanadi.

Rossiya ilm-fanida o'quvchi adabiyotning obyekti sifatida 20-yillardan boshlab o'rganila boshlagan. XX asrda A.I. Beletskiy adabiyot tarixi faqat bir tomonlama yozuvchilar tarixi bo'lib qolganligini, o'quvchini, uning asar tanlash xususiyatlari va ularning rivojlanish asoslarini o'rganish kerakligini ta'kidladi. Olimning fikriga ko'ra, aynan o'quvchi "yozuvchi ko'pincha anglamagan g'oyani" – "идею, о которой часто не подозревает пишущий" kashf etgan holda badiiy asarning estetik ahamiyatini baholovchi shaxsdir [Beletskiy, 1989; 115]. Shu bilan birga, A.I. Beletskiy asosan real va xayoliy o'quvchi turlariga alohida e'tibor qaratadi. A.I. Beletskiyning o'quvchi tarixiga "xayoliy o'quvchi" terminini qo'llagan holda nazariy qarashlari 1970-80-yillarda Rossiyaning ko'plab olimlari uchun o'quvchiga nisbatan e'tibor obyekti sifatida qarashda asosiy nazariyaga aylandi. XX asr boshlaridan XXI asrga qadar "kitobxonlar"ga bag'ishlangan ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davrdagi ilmiy tadqiqot ishlarida asosiy e'tibor hayotiy va xayoliy kitobxonga qaratilgan. Yuqorida aytib o'tilgan asoslar adabiy jarayonning obyekti yoki subyekti sifatida qaralib, muallif o'zining xayoliy kitobxonini tasavvur etgan holda muallifning estetik-g'oyaviy o'rnini, badiiy obrazga nisbatan nuqtayi nazarini, asosiy badiiy xususiyatlarini, badiiy nutq unsurlarini, mavzu, janr hamda asar kompozitsiyasini belgilab oladi [Beletskiy, 1989; 32]. V.Prozorovanning qayd etishicha, G'arb adabiyotida bo'lgani kabi Rossiyada ham XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hayotiy va xayoliy kitobxonga ajratish ilmiy jihatdan o'z asoslariga ega bo'la boshladi [Bol'shakova, 2005]. V.Prozorovanning ilmiy tadqiqotlarida "o'quvchi-qabul

qiluvchi” termini “o’quvchi-murojaat etuvchi” terminiga nisbatan qarama-qarshi tarzda qo’yiladi, ikkinchi termin ahamiyatsiz ekanligi ta’kidlanadi. I.D. Tamarchenko “Adabiyot nazariyasi asoslari” nomli qo’llanmasida nafaqat idrok etuvchi subyektning badiiy asarning matniga hamda qahramoniga nisbatan o’rnini belgilab beradi, balki “kitobxon” tushunchasiga ham o’z e’tiborini qaratadi. Jumladan, olim bu terminning ikkita bir-biridan tubdan farq qiluvchi ma’nolarini izohlaydi: tarixiy-hayotiy kitobxon, konkret kitobxon, subyektning matndan tashqari mohiyati va muallif tomonidan yaratilgan hamda badiiy asarda mavjud bo’lgan personajga qaratilgan o’quvchi obrazi. Olimning ta’kidlashicha, ushbu nazariyaning asosi yuqorida sanab o’tilganlardan tashqari, ularni birlashtirib turuvchi uchinchi unsurdir: “Kitobxon muallif tomonidan programmalashtirilgan ijodiy faoliyatining subyektidir” – “Читатель также субъект сотворческой деятельности, “запрограммированный” автором” [Tamarchenko i dr., 2004; 174]. Uchinchi unsur zamonaviy adabiyot nazariyalarida “ko’rinmas kitobxon” atamasi bilan ham yuritiladi. Ayni paytda kitobxon matnning retseptiv funksiyasining asosi sifatida qaraladi. Mazkur termin adabiy izlanishlarning ilmiy lug’atlarida quyidagicha izohlanadi: “kitobxon, bu – tushunishning adekvat javobiy qutbi” – “полюс адекватного ответного понимания” [Tyupa, 2008; 14]; asar mohiyati va mazmunini bir butun holda tasavvur etuvchi subyekt [Markovich, 1998]. Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, “kitobxon”ning samarali usulda nazariy asoslarini yaratish tadqiqotchining estetik tajribasidan kelib chiqib hamda adabiyotning aniq bir bosqichida shakllangan estetik mohiyatiga asoslanadi [Lavinskiy, 2003; 294]. Shuningdek, rus olimlari “muallifning o’limi” nuqtayi nazarini radikal munosabat sifatida emas, balki zamonaviy san’atning hozirgi holati sifatida talqin etadilar. Ya’ni, bunga ko’ra, kitobxon o’zining kelib chiqishiga ko’ra, asarni talqin etadi, hayotiy tajribasi bilan bog’laydi degan fikrni tushunish mumkin. Yoxud kitobxon adabiy muloqotning yakunlovchisidir, asar esa muayyan unsurlardan iborat zanjir bo’lib, uni kitobxon harakatga keltiradi. O’z navbatida, V.I. Tyupa [Tyupa, 2006], V.M. Markovich [Markovich, 1998], S.S. Averintsev [Averintsev, 1996], A.V. Ledenev [Ledenev, 2005] kabi tadqiqotchilarning bu boradagi ishlariga nazar soladigan bo’lsak, ushbu nazariya asoslarida kitobxon shakllantirilgan matndagi olamni idrok etuvchi sifatida talqin qilinadi.

O’zbek adabiyotshunosligida ham badiiy matn tahlilida o’quvchining o’rni haqida turli mulohazalar berib o’tiladi, biroq hali muayyan nazariya kelib chiqmagan yoxud “retseptiv poetika” atamasi uchramaydi. Biroq o’zbek olimlari ham kitobxon va matn o’rtasidagi munosabatlarga o’zlarining munozarali fikrlarini bildirishgan. D.Quronov va H.Umurov badiiy matn talqinida kitobxon rolini yuksak baholaydilar. D.Quronov o’zining “Adabiyotshunoslikka kirish” o’quv qo’llanmasida turli adabiy mavzular yuzasidan kitobxon haqida so’z yuritadi: “dialoglarning mavjudligi badiiy asarda muallif ishtirokini minimumga tushirib, kitobxonning tasavvur “sahnasida” suhbat bo’lib o’tadi” [Quronov, 2007; 61]. Bundan ko’rinib turibdiki, badiiy matnning asosiy ta’siri o’quvchiga nisbatan qaratilishi zarur va o’quvchining munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, D.Quronov yozuvchi badiiy obraz orqali ifodalamoqchi bo’lgan fikrni oxirigacha aytmasligini, balki mutolaa jarayonida badiiy

asar mohiyatini ochishni o'quvchiga qoldirishini ta'kidlaydi [Quronov, 2007; 72-73]. Adabiy talqin va tahlil haqida ham so'z yuritar ekan, olim o'quvchi badiiy asarni o'zicha talqin qiladi deydi va unga nisbatan "subyektiv ibtido" atamasini qo'llaydi. Talqinlar turlicha bo'lishiga qaramay, ularni chegaralab turuvchi javhar – yadro mavjudligini va bu yadro badiiy matn [Quronov, 2007; 234] bo'lib, yozuvchi-asar-kitobxon uchburchagida badiiy asarni markaz qilib oladi. H.Umurov "Badiiy ijod asoslari"da asarga munosib bahoni o'quvchi berishini va bu baho orqali badiiy asarga nisbatan o'z munosabatini belgilashini aytib o'tgan holda kitobxonni asar-muallif-kitobxon zanjirida birinchi o'ringa qo'yadi. Buni quyidagi mulohazadan ham anglash qiyin emas: "Kitobxon ko'z o'ngida sodir bo'layotgan hayotni ko'rar va o'qish jarayonida shu hayotni tasavvurida jonlantirar ekan, bu hayot haqida o'zi xulosaga keladi, unda ko'tarilgan masalalarni o'zi yechadi, personajlarga bo'lgan munosabatini o'zi tayin etadi, asardagi yaxshi yoki yomonni o'zi ajratadi" [Umurov, 2001; 102]. Ya'ni, g'arb va rus adabiyotshunoslari qatorida o'zbek olimlari ham kitobxonning badiiy matn talqinidagi rolini yuqori baholashgan.

Ulardan farqli o'laroq E.Xudoyberdiyev ham o'zining "Adabiyotshunoslikka kirish" nomli asarida kitobxon haqida so'z yuritar ekan: "Yozuvchilar badiiy asarda muayyan hayotiy muammolarni ko'tarish bilangina cheklanmaydilar, balki ularning hal qilinish yo'llarini ham ko'rsatadilar. Buning uchun ular tasvirlanayotgan narsa-hodisalarni o'zlari tasdiqlayotgan ideallar bilan qiyoslaydilar. Qiyoslash natijasida muayyan bir fikrni ilgari suradilar. Shunga ko'ra, adabiy asarda har doim yozuvchining muhim fikri, g'oyasi, maqsadi bo'ladi", ya'ni, kitobxon asar mazmunini yaratmaydi, balki muallif singdirgan badiiy mazmunni angelaydi, shuningdek, badiiy qoliplar yordamida muallif asarni xohlagan mohiyat bilan o'quvchi ongiga singdirishga, o'zi xohlagan munosabatni uyg'otishga erishadi, deya ta'kidlaydi [Xudoyberdiyev, 2008; 65].

O'z navbatida, biz o'zbek adabiyotshunosligida retsepsiya tushunchasining nazariy hamda tarixiy omillarini o'rganish zarur degan fikrdamiz. Avvalambor, retseptiv poetika tushunchasi, roli va tarixi bilan bir qatorda asosiy xususiyatlari va tadqiqot obyektni ham izchil o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy adabiyot tanqidchilar fikriga ko'ra, badiiy matnning mohiyati faqatgina matn tarkibidan iboratdir va bu mohiyat vaqt o'tsa-da o'zgarmas bo'lib qolaveradi. Matn mazmuni muallif g'oyasining mahsuli emas, shuningdek, o'quvchining munosabati sabab o'zgarishga uchramaydi. Zamonaviy adabiyotshunoslar va tanqidchilar o'quvchining matnga nisbatan munosabatiga e'tibor qaratish matnning asl mazmunini o'zgartirib yuboradi, deb hisoblaydilar. 1970-yillarga qadar retseptiv poetika nazariyasiga unchalik e'tibor qaratilmagan bo'lsa, bu matnning asl mohiyatini uning asosiy vazifasidan ajratish imkonsiz ekanligini ko'rsatdi. Mutolaa jarayoni xususidagi yuqorida keltirilgan turlicha fikrlarga qaramay, retseptiv poetika nazariyasi olimlari ikkita g'oyani ilgari suradilar: 1) adabiyotni anglashda o'quvchining o'rnini hisobga olmaslik imkonsizdir; 2) o'quvchilar ularga taqdim etilgan badiiy matn mohiyatini passiv idrok etmaydilar, aksincha, ular faol tarzda adabiyotni o'qish jarayonida uning mazmunini anglaydilar.

Retseptiv poetika nazariyasi yangi adabiy tanqid nazariyasiga qarama-qarshi oqim sifatida vujudga keldi. Yangi adabiy tanqid nazariyasi o'quvchini passiv qabul qiluvchi sifatida qabul qilib, asosiy urg'uni matn ustida ishlashga bersa, retseptiv poetika nazariyasi olimlari badiiy matn mazmunini yaratishda o'quvchining faol ishtiroki muhimligini ta'kidlaydilar. Ushbu ikki oqim o'rtasidagi asosiy farqli jihati ularning e'tibor qaratilayotgan yondashuv obyekti, ya'ni yangi adabiy tanqid nazariyasining yondashuv obyekti matn bo'lsa, retseptiv poetika nazariyasining yondashuv obyekti o'quvchidir. L.M. Rozenblatt o'qishni "kelishuv" va ikki tomonlama jarayon sifatida tasvirlaydi, bunda matn va o'quvchi ishtiroki ma'lum bir vaqt hamda sharoitlar yig'indisidan iboratdir [Rosenblatt, 1982]. "Kelishuv" atamasi fanga J.Dyui tomonidan kiritilgan va, u o'zining falsafaga bag'ishlangan ilmiy qo'lyozmalarida o'quvchilarning va badiiy matnning butun o'qish jarayoni davomida o'zaro moslashuvchanligini ta'kidlaydi [Dewey, 1997]. J.Konnell J.Dyuning falsafasini quyidagicha izohlaydi, ya'ni o'zaro moslashish – bu "bilish, bilimga bo'lgan barcha da'volarning eksperimental tabiati, bilim oluvchining faol roli va talabgorlar o'rtasidagi muloqot va kelishga erishish jarayoni"dir – "the process of coming-to-know, the tentativeness of all knowledge claims, the active role of the knower, and the need for communication and agreement among inquirers" [Connell, 1996; 396]. L.M. Rozenblattning g'oyasiga asosan matn va o'quvchi munosabati bilangina yozilgan so'zlar aql-idrokka turtki bo'ladi va o'quvchilar tilning ushbu mahsulini anglaydilar [Rosenblatt, 1982; 268]. Olim yana shuni ta'kidlaydiki, "har bir inson, xoh u tinglovchi, xoh yozuvchi, notiq, qo'yingki, o'quvchi bo'lsin, o'z til boyligidan va hayotiy orttirgan tajribasidan kelib chiqib munosabatga kirishadi" – "Regardless of being a listener, writer, speaker, or a reader, every person forms an interaction by their own linguistic-experiential resource and remains of previous transactions in life and language" [Rosenblatt, 1993; 381]. Ushbu uzviy munosabat davomida bir necha matn talqinlari ehtimoli mavjud, shu sababdan L.M. Rozenblatt va retseptiv poetika nazariyasi bilan shug'ullanuvchi boshqa olimlar matnga yagona bir chegaralangan g'oyani bog'lashni inkor etadilar. V.Izer ham yozuvchi matnda qoldirib ketgan havolalarni to'ldirish uchun o'quvchining matn mazmunini yaratishga qo'shgan hissasining natijasi sifatida matnning bir nechta talqinlariga urg'u beradi. Xususan, u hamda L.M. Rozenblatt olib borgan ilmiy izlanishlarida o'quvchining faol ishtirokiga va ularning oldingi tajribalariga, ma'lumotlari va xulosalariga e'tibor qaratadilar.

L.M. Rozenblatt, I.A. Richards, S.Fish va V.Izer kabi retseptiv poetika nazariyasining taniqli olimlari mutolaaga badiiy matn va o'quvchi o'rtasidagi "ikki tomonlama bitim" uslubidagi faol jarayon sifatida baho beradilar. Ularning ta'kidlashicha, har bir mutolaa jarayoni kitobxon uchun estetik, aqliy, ijtimoiy va etik unsurlarni bir butunlikda his etadigan o'ziga xos tajribadir. L.M. Rozenblatt bunga quyidagicha aniqlik kiritadi: "o'quvchining "muayyan idroki, faoliyatidan ko'zlagan maqsadlari va shaxsiy qadryatlari"dan uning har qanday badiiy asa xususidagi qarashlari va tushunchalariga quloq tutish orqali boxabar bo'lish mumkin" – "a certain self-awareness, a certain perspective on his (the reader's) own preoccupations, and his

own system of values” can be achievable with the reader’s comprehension and reflection on the world of any literary work” [Rosenblatt, 1994; 145-146]. Bu kabi mulohaza o‘quvchining o‘ziga xos tajribasi va mutolaa jarayoni davomida yuqorida tilga olingan jihatlarni namoyon qilib borishining qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, M.Salvatori ham o‘z-o‘zini anglashga erishish uchun adabiyotni kashf etish, uni idrok etish va mazmun yaratish uchun unga qayta nazar solish kabi muhim xususyatlarni hisobga olgan holda kitobxonga uni o‘qitish kerakligini tavsiya qiladi [Salvatori, 1983; 659]. L.M. Rozenblatt o‘qishning ikkita turini alohida tavsiflaydi: estetik va markazlashgan mutolaa va o‘quvchi yoki o‘rganuvchi maqsad va vaziyatdan kelib chiqib ulardan birini tanlashi kerak [Rosenblatt, 1993; 378]. Uning fikriga ko‘ra, estetik mutolaa o‘quvchilari “o‘qish davomida hissiyot uyg‘onishi, uni his qilish, boshidan kechirish” kabi jarayonlarga e‘tibor qaratadilar. Estetik mutolaa asosan o‘quvchining hissiyotlari, munosabatlari, o‘y-xayollari va taassurotlaridan iborat. Aksincha, markazlashgan o‘qish “mutolaadan so‘ng hosil bo‘luvchi xususiyatlar – tahlil qilish, mavhumlashtirish va to‘plash” kabilardan iboratdir. Markazlashgan o‘qish jarayonida o‘quvchilar asosan mazmunning aqliy xususiyatlariga e‘tibor qaratadilar.

Shunday qilib, retseptiv poetika nazariyasi kitobxonni badiiy asarga hayot beruvchi va uning mazmunini o‘zining talqini orqali tugal holatga keltiruvchi faol shaxs sifatida ko‘radi. Retseptiv poetika nazariyasiga ko‘ra, adabiyot faniga har bir kitobxon o‘zining matnga asoslangan o‘ziga xos faoliyatini olib borishga imkon bera oluvchi amaliy san‘at turi sifatida qaralishi zarur. Binobarin, ushbu nazariya badiiy asarni qayta jonlantiruvchi – kitobxonning o‘rnini to‘liq inkor etgan formalizm yoxud yangi adabiy tanqid oqimlariga qarama-qarshi oqim sifatida vujudga kelgan.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, retseptiv poetika nazariyasi samarali mutolaaga erishish maqsadida kitobxonga yo‘naltirilgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuvdan o‘quv mashg‘ulotlari davomida foydalanish barcha o‘quvchilarni matn va kitobxon orasida ro‘y beradigan ma’lumotlar uzatuvining muhimligiga urg‘u bergan holda darsga jalb etadi. O‘qituvchilar bu yondashuv orqali kitobxonlik o‘quvchilarining sevimli va odatiy mashg‘ulotlariga aylanishiga erishadilar. Kitobxon matnga nisbatan interpretatsiyasiga o‘z hayotiy tajribalari va his-tuyg‘ularidan kelib chiqib yondashishi, albatta, amalda uning mustaqil fikrini ifodalashda o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quv mashg‘ulotlarida ham o‘z aksini topadi, zero, o‘quvchilar mutolaadan ilhomlanib, o‘z fikrlarini qog‘ozga tushiradilar. Shuningdek, retseptiv poetika yondashuvidan foydalanish o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Retseptiv poetika nazariyasi muallif-matn-kitobxon uchburchagida kitobxonni markaziy shaxs deb tan olishi esa hozirgi zamon ta’limining asosi – o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim shakliga erishish imkoniyatini yaratadi. Bundan kelib chiqadiki, adabiyot mashg‘ulotlarida retseptiv poetika yondashuvining ijobiy jihatlaridan foydalanishning samaradorligi son-sanoqsizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abrams, M.H., & Harpham, G. (2014). *A glossary of literary terms* (11th ed.). USA: Cengage Learning.
2. Averintsev, S.S. (1996). *Poety*. Moskva: Shkola "Yazyki russkoy kul'tury".
3. Baldick, Ch. (2001). *The concise Oxford dictionary of literary terms*. Oxford: Oxford University Press.
4. Beletskiy, A.I. (1989). *V masterskoy slova khudozhnika*. Moskva: Vysshaya shkola.
5. Blackburn, S. (2016). *The Oxford dictionary of philosophy* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
6. Bol'shakova, A. (2005). Teorii chitateley i literaturno-teoreticheskaya mysl' khkh veka. V knige Yu.B. Borev (Glav. Red.), *Teoretiko-literaturnyye itogi XX veka: Chitateľ* (ss. 512–530). Moskva: Praksis.
7. Britannica. (n.d.). Art for art's sake. In *Britannica.com dictionary*. Retrieved March 20, 2024, from <https://www.britannica.com/topic/art-for-arts-sake>.
8. Browne, S., Chen, X., Baroudi, F., & Sevinc, E. (2021). Reader response theory. In *Oxfordbibliographies.com*. <https://doi.org/10.1093/OBO/9780190221911-0107>.
9. Dewey, J. (1997). *Experience and education* (2nd ed.). New York: Free Press.
10. Fish, S.E. (1998). *Surprised by Sin: The reader in Paradise Lost*. USA: Harvard University Press.
11. Holland, N.N. (1975). *5 readers reading*. Connecticut: Yale University Press.
12. House, R. (2010). *Webster's college dictionary* (2nd ed.). USA: University of Minnesota.
13. Husserl, E. (1970). *The idea of phenomenology*. Netherlands: Martinus Nijhoff Publishers.
14. Iser, W. (1972). The reading process: A phenomenological approach. *New Literary History*, 3(2), 279–299.
15. Cuddon, J.A., & Preston, C. (1998). *The Penguin dictionary of literary terms and literary theory* (4th ed.). London: Penguin Books.
16. Connell, J. (1996). Assessing the influence of Dewey's epistemology on Rosenblatt's reader response theory. *Educational Theory*, 46, 395–413. <https://doi.org/10.1111/j.1741-5446.1996.00395.x>.
17. Lavlinskiy, S.P. (2003). *Tekhnologiya literaturnogo obrazovaniya: Kommunikativno-deyatel'nostnyy podkhod*. Moskva: Progress-Traditsiya.
18. Ledenev, A.V. (2005). Poetika i stilistika V.V. Nabokova v devyatykh khudozhestvennykh iskan'yakh kontsa XIX - poloviny pervoy XX veka. *Diss. dok. filol. nauk*. Moskva: Moskovskiy gosudarskiy universitet imeni M.V. Lomonosova.
19. Lucas, D.W. (Ed.). (1981). *Aristotle: Poetics*. Oxford: Oxford University Press.
20. Markovich, V.M. (1998). Pushkin, Chekhov i sud'ba "leleyushchey dushi gumannosti". V knige V.B. Katayev (Red.), *Chekhoviana: Chekhov i Pushkin* (ss. 10–19). Moskva: Nauka.
21. Merriam-Webster. (n.d.). Catharsis. In *Merriam-Webster.com dictionary*. Retrieved March 26, 2024, from <https://www.merriam-webster.com/dictionary/catharsis>.
22. Merriam-Webster. (n.d.). Reader-response criticism. In *Merriam-Webster.com dictionary*. Retrieved March 24, 2024, from <https://www.merriam-webster.com/dictionary/reader-response%20criticism>.
23. Pozzi, E.M., Mohamad, G.A., & Gander, L.C. (2021). Why can't I just use the classics?: Bringing diverse books to teachers and librarians. In D.E. Hartsfield (Ed.), *Handbook of Research on Teaching Diverse Youth Literature to Pre-Service Professionals* (pp. 1–24). Pennsylvania: Information Science Reference. <https://doi.org/10.4018/978-1-7998-7375-4.ch001>.
24. Quronov, D. (2007). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
25. Rosenblatt, L.M. (1993). The transactional theory: Against dualisms. *College English*, 55(4), 377–386.
26. Salvatori, M. (1983). Reading and writing a text: Correlations between reading and writing patterns. *College English*, 45(7), 657–666. <https://doi.org/10.2307/377175>.

27. Schakel, P.J. (2002). *Imagination and the arts in C.S. Lewis: Journeying to Narnia and other worlds*. Columbia: University of Missouri Press.
28. Stade, G. (1969). The dynamics of literary criticism (review). *Kenyon Review*, 31(4), 573–576.
29. Tamarchenko, N.D., Tyupa, V.I., & Broymtan, M.S. (2004). *Teoriya literatury* (T. 1). Moskva: Akademiya.
30. Tyson, L. (2012). *Critical theory today* (2nd ed.). New York: Routledge.
31. Tyupa, V.I. (2006). Kommunikatsionnaya strategiya chekhovskoy poetiki. V sbornike J.D. Clayton (Red.), *Chekhovskiye chteniya v Ottave* (ss. 17–32). Moskva: Liliya Print.
32. Tyupa, V.I. (2008). Adresat. V knige N.D. Tamarchenko (Red.), *Poetika: Slovar' aktual'nykh terminov i ponyatiy* (s. 14). Moskva: Izdatel'stvo Kulaginoy.
33. Umurov, H. (2001). *Badiiy ijod asoslari*. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
34. Wegmann, S. (2009). Interactions online. In P.Rogers, G.Berg, J.Boettcher, C.Howard, L.Justice, & K.Schenk (Eds.), *Encyclopedia of Distance Learning* (2nd ed., pp. 1259–1267). Pennsylvania: IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-60566-198-8.ch180M>.
35. Xudoyberdiyev, E. (2008). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent: "Sharq" nashriyoti.
36. Young, T.D. (1976). *Gentleman in a dustcoat: A biography of John Crowe Ransom*. Louisiana: Louisiana State University Press.
37. Zhao, J. & Christison, M. (2020). Using literature circles instruction to develop reading comprehension skills. In G.Neokleous, A.Krulatz, & R.Farrelly (Eds.), *Handbook of Research on Cultivating Literacy in Diverse and Multilingual Classrooms* (pp. 348–367). Pennsylvania: IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-7998-2722-1.ch017>.

REFERENCES

1. Abrams, M.H., & Harpham, G. (2014). *A glossary of literary terms* (11th ed.). USA: Cengage Learning.
2. Averintsev, S.S. (1996). *Poetry*. Moscow: School of "Languages of Russian Culture".
3. Baldick, Ch. (2001). *The concise Oxford dictionary of literary terms*. Oxford: Oxford University Press.
4. Beletsky, A.I. (1989). *In the studio the artist's words*. Moscow: Higher School.
5. Blackburn, S. (2016). *The Oxford dictionary of philosophy* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
6. Bolshakova, A. (2005). Theories of readers and literary theoretical thought of the twentieth century. In Y.B. Borev (Ch.Ed.), *Theoretical and Literary Results of the 20th Century: Reader* (pp. 512–530). Moscow: Praxis.
7. Britannica. (n.d.). Art for art's sake. In *Britannica.com dictionary*. Retrieved March 20, 2024, from <https://www.britannica.com/topic/art-for-arts-sake>.
8. Browne, S., Chen, X., Baroudi, F., & Sevinc, E. (2021). Reader response theory. In *Oxfordbibliographies.com*. <https://doi.org/10.1093/OBO/9780190221911-0107>.
9. Connell, J. (1996). Assessing the influence of Dewey's epistemology on Rosenblatt's reader response theory. *Educational Theory*, 46, 395–413. <https://doi.org/10.1111/j.1741-5446.1996.00395.x>.
10. Cuddon, J.A., & Preston, C. (1998). *The Penguin dictionary of literary terms and literary theory* (4th ed.). London: Penguin Books.
11. Dewey, J. (1997). *Experience and education* (2nd ed.). New York: Free Press.
12. Fish, S.E. (1998). *Surprised by Sin: The reader in Paradise Lost*. USA: Harvard University Press.
13. Holland, N.N. (1975). *5 readers reading*. Connecticut: Yale University Press.
14. House, R. (2010). *Webster's college dictionary* (2nd ed.). USA: University of Minnesota.
15. Husserl, E. (1970). *The idea of phenomenology*. Netherlands: Martinus Nijhoff Publishers.
16. Iser, W. (1972). The reading process: A phenomenological approach. *New Literary History*, 3(2), 279–299.

17. Khudoyberdiyev, E. (2008). *Introduction to literary studies*. Tashkent: Publishing House of 'East'.
18. Kuronov, D. (2007). *Introduction to literary studies*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
19. Lavlinsky, S.P. (2003). *Technology of literary education: Communicative-activity approach*. Moscow: Progress-Tradition.
20. Ledenev, A.V. (2005). Poetics and stylistics V.V. Nabokov in the ninth artistic quest of the late 19th - half of the first 20th centuries. *DSc thesis. philol.* Moscow: Moscow State University named after M.V. Lomonosov.
21. Lucas, D.W. (Ed.). (1981). *Aristotle: Poetics*. Oxford: Oxford University Press.
22. Markovich, V.M. (1998). Pushkin, Chekhov and the fate of "humanity that cherishes the soul." In V.B. Kataev (Ed.), *Chekhoviana: Chekhov and Pushkin* (pp. 10–19). Moscow: Science.
23. Merriam-Webster. (n.d.). Catharsis. In *Merriam-Webster.com dictionary*. Retrieved March 26, 2024, from <https://www.merriam-webster.com/dictionary/catharsis>.
24. Merriam-Webster. (n.d.). Reader-response criticism. In *Merriam-Webster.com dictionary*. Retrieved March 24, 2024, from <https://www.merriam-webster.com/dictionary/reader-response%20criticism>.
25. Pozzi, E.M., Mohamad, G.A., & Gander, L.C. (2021). Why can't I just use the classics?: Bringing diverse books to teachers and librarians. In D.E. Hartsfield (Ed.), *Handbook of Research on Teaching Diverse Youth Literature to Pre-Service Professionals* (pp. 1–24). Pennsylvania: Information Science Reference. <https://doi.org/10.4018/978-1-7998-7375-4.ch001>.
26. Rosenblatt, L.M. (1993). The transactional theory: Against dualisms. *College English*, 55(4), 377–386.
27. Salvatori, M. (1983). Reading and writing a text: Correlations between reading and writing patterns. *College English*, 45(7), 657–666. <https://doi.org/10.2307/377175>.
28. Schakel, P.J. (2002). *Imagination and the arts in C.S. Lewis: Journeying to Narnia and other worlds*. Columbia: University of Missouri Press.
29. Stade, G. (1969). The dynamics of literary criticism (review). *Kenyon Review*, 31(4), 573–576.
30. Tamarchenko, N.D., Tyupa, V.I., & Broitman, M.S. (2004). *Theory of literature* (Vol. 1). Moscow: Academy.
31. Tyson, L. (2012). *Critical theory today* (2nd ed.). New York: Routledge.
32. Tyupa, V.I. (2006). Communication strategy of Chekhov's poetics. In J.D. Clayton (Ed.), *Chekhov Readings in Ottawa* (pp. 17–32). Moscow: Lilia Print.
33. Tyupa, V.I. (2008). Address. In N.D. Tamarchenko (Ed.), *Poetics: A Dictionary of Current Terms and Concepts* (p. 14). Moscow: Kulagina Publishing House.
34. Umurov, H. (2001). *Basics of artistic creation*. Tashkent: Publication House of 'Uzbekistan'.
35. Wegmann, S. (2009). Interactions online. In P.Rogers, G.Berg, J.Boettcher, C.Howard, L.Justice, & K.Schenk (Eds.), *Encyclopedia of Distance Learning* (2nd ed., pp. 1259–1267). Pennsylvania: IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-60566-198-8.ch180M>.
36. Young, T.D. (1976). *Gentleman in a dustcoat: A biography of John Crowe Ransom*. Louisiana: Louisiana State University Press.
37. Zhao, J. & Christison, M. (2020). Using literature circles instruction to develop reading comprehension skills. In G.Neokleous, A.Krulatz, & R.Farrelly (Eds.), *Handbook of Research on Cultivating Literacy in Diverse and Multilingual Classrooms* (pp. 348–367). Pennsylvania: IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-7998-2722-1.ch017>.